



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING VIZUAL-DIDAKTIK VOSITALAR YORDAMIDA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK KOMPETENTLIGINI OSHIRISH

Mirfayziyeva Nilyufar Baxodirovna

1-bosqich magistr, Toshkent xalqaro ta'lim universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining pedagogik-psixologik kompetentligini rivojlantirishda vizual-didaktik vositalarning roli ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida ochib beriladi. Vizual-didaktik vositalarning bolalar rivojlanish jarayoniga ta'siri, tarbiyachining metodik va psixologik tayyorgarligiga qo'shadigan hissasi, shuningdek, ularni amaliyotda qo'llashning samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tarbiyachilar kompetentligining oshishi bilan mashg'ulotlar samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni namoyon etadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, vizual-didaktik vositalar, pedagogik kompetentlik, psixologik tayyorgarlik, tarbiyachi, rivojlanish psixologiyasi.

Аннотация. В статье на основе научно-теоретических и практических исследований раскрывается роль наглядно-дидактических средств в развитии педагогической и психологической компетентности воспитателей дошкольных образовательных организаций. Анализируется влияние наглядно-дидактических средств на процесс развития ребенка, их вклад в методическую и психологическую подготовку воспитателя, а также эффективность их использования на практике. Результаты исследования демонстрируют взаимосвязь между повышением компетентности воспитателей и эффективностью занятий.

Ключевые слова: дошкольное образование, наглядно-дидактические средства, педагогическая компетентность, психологическая подготовка, воспитатель, возрастная психология.

Annotation. This article reveals the role of visual-didactic tools in the development of pedagogical and psychological competence of educators of preschool educational organizations on the basis of scientific-theoretical and practical research. The impact of visual-didactic tools on the process of child development, their contribution to the methodological and psychological preparation of the educator, as well as the effectiveness of their use in practice are analyzed. The results of the study demonstrate the relationship between the increase in the competence of educators and the effectiveness of classes.

Key words: preschool education, visual-didactic tools, pedagogical competence, psychological preparation, educator, developmental psychology.

KIRISH

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an'alarimizga, jahon mamlakatlarining ilg'or tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib kelinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish va shu yo'lda qator islohotlarni amalga oshirish, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va



jismoniy rivojlantirish uchun ta'lim sifatini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yilda 30-sentabrgi PF-152-son Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmonida "Zamonaviy, innovatsion va maktabga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy o'quv anjomlari va texnologiyalari bilan jihozlash, pedagoglar malakasini oshirish kurslarini takomillashtirish, ularning kasbiy salohiyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish." kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan [1].

Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining vizual-didaktik vositalar yordamida pedagogik-psixologik kompetentligini, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha ta'limda tarbiyachining pedagogik-psixologik kompetentligini shakllantirish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli pedagogika va psixologiya maktablarida keng o'rganila boshlangan. L.S. Vygotskiy [3], J. Piaje, A.V. Zaporjets, D.B. Elkonin kabi olimlar maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi, idrok, tasavvur, ramziy fikrlashning shakllanishida vizual materiallarning ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, bolalarda ilk kognitiv strukturalarning shakllanishi bevosita vizual-ob'ektlar va tasvirlar bilan ishlash jarayonida kuchliroq namoyon bo'ladi [4].

Yurtimiz olimlaridan A. Zunnunov, M. Ochilov, N. To'rayeva, Sh. Sharipovlar ham shu mavzuda ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ular o'z tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, didaktik vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda tarbiyachining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy yondashuvlarini bayon qilishgan. Ushbu manbalarda kompetent ta'lim beruvchi shaxsning asosiy xususiyatlari sifatida innovatsion fikrlash, psixologik sezgirlik, kommunikativ madaniyat va vizual materiallardan maqsadli foydalanish ko'nikmalari ko'rsatiladi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot quyidagi metodlarga asoslandi:


- Psixologik-pedagogik tahlil. Bunda vizual vositalarning bola psixik rivojlanishiga ta'siri o'rganildi.



- Sistemali metod. Ushbu metodda tarbiyachi kompetentligi tarkibiy qismlari (metodik, psixologik, kommunikativ, texnologik) o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi.
- Tahliliy-taqqoslovchi metod. Mazkur metod orqali xorijiy va mahalliy adabiyotlar solishtirildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING EMPERIK TAHLILI

Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq. Kompetensiya o'z xarakteriga ko'ra uch turga bo'linadi (1-rasm).



1-rasm. Kompetensiya turlari

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. Tarbiyachi-pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir [6].

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova, va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi. O'zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi,



uning o'ziga xos jihatlari o'ranilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova va S.Musinov tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi. Kasbiypedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z -o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish, boshqarish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi [7].

Vizual-didaktik vositalar – bu rasmlar, sxemalar, multimedia, interaktiv o'yinlar, maketlar, videolar kabi ko'rish orqali idrok etiladigan o'quv materiallaridir. Maktabgacha ta'lim jarayonida ushbu vositalardan foydalanish nafaqat bolalarning rivojlanishiga, balki tarbiyachining kasbiy kompetentligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi (2-rasm).

Kompetentlik turi	Ta'sir ko'rsatuvchi omillar	Kutilgan natija
Pedagogik o'zlashtirilishi	Dars mazmunini vizual shaklda yetkazish	Tushunchalarning oson tushunilishi
Psixologik	Rang, shakl va tasvir orqali emotsional barqarorlik	Motivatsiya va ijobiy kayfiyat
Kommunikativ	Ko'rgazmali muloqot vositalari	Bolalar bilan kuchli muloqot
Texnologik	Multimedia, interaktiv resurslar	IT ko'nikmalari rivoji

2-rasm. Vizual-didaktik vositalarning tarbiyachi kompetentligiga ta'siri

Avvalo, vizual-didaktik vositalar tarbiyachining *pedagogik kompetentligini* rivojlantirib, mashg'ulotlarni rejalashtirish, tushuntirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etish ko'nikmalarini kuchaytiradi. Shuningdek, vizual materiallar orqali tarbiyachi bolalarning idrok, diqqat va emotsional reaksiyalarini kuzatib, *psixologik kompetentligini* mustahkamlaydi. Vizual-didaktik vositalar bilan ishlash tarbiyachining *kommunikativ mahoratini* oshiradi, chunki tasvirlar bolalar bilan muloqotni faol va qiziqarli qiladi. Raqamli vizual vositalardan foydalanish esa tarbiyachining *innovatsion kompetentligini* rivojlantirib, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, vizual vositalar tarbiyachida ijodkorlikni, reflektiv tahlil qilish ko'nikmasini kuchaytiradi, dars samaradorligini oshiradi [8].



Vizual-didaktik vositalar (rasmlar, jadvallar, sxemalar, videolar, multimedia taqdimotlari) ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli oshiruvchi eng muhim didaktik resurslardan biridir. Ta'lim psixologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'ra, inson miyasi vizual ma'lumotni matnga nisbatan 60 000 marta tezroq qayta ishlaydi [9]. Shu sababli dars jarayonida ko'rgazmali vositalardan foydalanish bolalarning diqqatini jamlash, tushunchalarni tezroq anglash va mustahkamlashga yordam beradi. Maktabgacha ta'limda vizual vositalar bolalarda tasavvur, idrok, tafakkur va nutq rivojlanishini kuchaytirib, o'quv faoliyatini yanada qiziqarli qiladi [10]. R.Mayerning multimedia ta'lim nazariyasida aytilishicha, matn va tasvirning uyg'un qo'llanishi o'zlashtirish darajasini 40–50 % gacha oshiradi, bu esa ta'limni yanada samarali qiladi. Mahalliy tadqiqotchilar Ochilov va To'rayevalar ham maktabgacha ta'limda vizual-didaktik vositalar qo'llanilganda bolalarda faollik, mustaqil fikrlash va o'yin orqali o'rganish jarayoni kuchayishini ta'kidlaydi [11].

XULOSA

Olib borilgan izlanishlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining vizual-didaktik vositalar yordamida pedagogik-psixologik kompetentligini oshirish tarbiyachilarni bolalar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirishga shuningdek bolalarning ham aqliy salohiyatlarini o'stirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, vizual-didaktik vositalar ta'limni nafaqat ko'rgazmali qiladi, balki uni chuqur anglash, eslab qolish va amaliyotga tadbiq etish jarayonini sezilarli yaxshilaydi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari faoliyatini yanada zamonaviy, samarali va psixologik jihatdan asosli tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 yildagi PF-152-son Farmoni.
2. A. Abduzazizova Byeronika. Formirovaniye kreativnogo pedagoga / Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga innovatsion 126 yondashuv, - Namangan, 2012. 90-92 b.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. Jean Piaget, Margaret Cook. Origin of Intelligence in the Child Selected Works vol 3, Publisher, Intl Universities Pr Inc, 1997.
5. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi),. O'zR O va O'MTV. -T.: «TAFAKKUR- BO'STONI». 2011. 74 bet.
6. X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova. Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati: o'quv qo'llanma /– Toshkent: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 102 b.
7. N.S.Sayidova. Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar/O'quv–uslubiy majmua, Buxoro, 2024. 17 b.
8. Ikramov Shuxrat Erkinovich, “Maktabgacha Ta'limda - Kreativlik Tushunchasi” Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya, January 20, 2022, 28 b.



9. Mayer, R.E. The Cambridge Handbook of Multimedia Learning*. Cambridge University Press, 2005.
10. Zaporjets, A.V. Bolaning aqliy rivojlanishi / A.V. Zaporjets // Tanlangan 2 jild. - M.: Pedagogika, 1986. - V. 1. - 67 b.
11. Xurvaliyeva T.L. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarining malakasini oshirish omillari // ta'lim jarayonida innovatsiya va integratsiya. xalqaro ilmiy to'plam materiallari. toshkent, 2017. -b.-309-312.
12. Shavkatova, G. (2024). Stage expression of fairy tales in the school program in theaters of young audiences. European Journal of Arts, (3), 87-91.

